

**MILLIY QADRIYATLAR TAKOMILIDA MA'NAVIY  
MEROSONG O'RNI**

**Nosirjonov Muhammadamin**

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada milliy qadriyat tushunchasiga keng o'rinn berilgani holda, bugungi yosh avlod va uning tarbiyasida muhim o'rinn tutgan ma'naviy meros, uning mazmunini shakllantiradigan insoniy fazilatlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** umuminsoniy va milliy qadriyatlar, milliy tiynat, ma'naviy meros, komil inson, ota-onaga hurmat, ota yurt, ona til, vatanparvarlik, rahm-shafqat, insoniy tuzuklar.

Dunyo paydo bo'lgandan buyon insoniy takomil bosqichlarida quyidagi ikki tushuncha ajralmas tarzda elat, millat va xalqning hayotiy tuzuklarini o'zida mujassam etib keldi: qadriyat va ma'naviy meros. Bu ikki tushuncha asrlar mobaynida insoniyat tarixidagi mushtarak mezondirki, biri ikkinchisiga chambarchas bog'liq holda, umrboqiylik kasb etib, odamiylik olamining asosi sifatida, ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyat – insoniyat uchun barcha nekbin fazilatlar majmuyidir. Inson – Hazrati Odam avlodlari uchun erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat kabilalar bir butunlikda, **QADRIYAT** deya nomlanadi.

Qadriyat tufayli Odam avlodlari hazrati inson, deya ulug'landi; barcha maxluqotlar ichida aziz xilqat sifatida, so'zga, ongga, fikrga egalik bilan siylandi. Barcha tirik mavjudotlarning yashashi, umrguzaronlik bosqichlarida o'xshashlik va farqlilik jihatlari qadriyat tarozusi bilan o'lchanadikim, mana shu tushuncha bizni hayvonot va nabotot dunyosidan ajratuvchi insoniy tuzuklar sifatida e'tirof etilgusidir.

Qadriyat dastlab muayyan elat, millat va uning ongli qatlami sanalgan xalqning o'zligini, tiynatini bilvosita, namoyon etadi. Milliy tiynat, ya'ni xalqning qon-qoniga singib ketgan milliy fe'l-atvor, olivjanob insoniy fazilatlar qadriyat degan yuksak ijobiy mezonni anglatadi. Davrlar o'tishi bilan, milliy qadriyatning ko'plab shakl-u shamoyillari: odob-axloq, erkinlik, olivjanoblik, go'zal urf-odat va an'analar, bir millat doirasidan chiqib, boshqa xalqlar ma'naviy olami tomon quloch yoyib, asta-sekin umuminsoniy qadriyatlarga aylana boradi. Bizning milliy mentalitetimiz tarkibi ham qadimiy sharqona ma'naviy ildizlar asosida shakllanib, bo'y ko'rsatib keldi. Bugun mendan milliy qadriyatlarimizni sanab berishimni so'rasalar, hech ikkilanmay, bu bizning

milliy urf-odatlarimiz, oliyjanoblik deya sanaydigan fazilatlarimiz va insonparvarlikka asoslangan islomiy dunyoqarashimizdir, deb javob bergen bo‘lardim.

Sir emaski, XXI asrda turfa xil hayat tarzi, turli g‘oyalar o‘rtasidagi raqobat kuchaydi. Hozirgi kunda ko‘plab g‘arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalarning ba’zi millatlar o‘zligini yo‘qotishiga qaratilayotganini sezish qiyin emas. Bu jarayonda asosiy e’tibor muayyan hududni emas, balki inson ongini egallahga yo‘naltirilgan. Shu ma’noda, bugun milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni vatandoshlarimizga yetarli darajada tushuntirishda zimmamizda o‘ta mas’uliyatli vazifalar turganini anglab yetishimiz zarur. Chunki har bir millatni tanitadigan, dunyo xalqlari orasida o‘zligini belgilab beruvchi mezonlar silsilasining eng asosiy xalqalaridan biri milliy qadriyatlar va umummilliy ma’naviy merosdir. Ushbu ma’naviy merosning asosi muqaddas ota yurt, xalqimizning buyuk tarixi silsilasi, shuningdek, inson qalbining oynasi bo‘lmish Ona til — bularning hammasi xalqning o‘zligi, mentalitetinini qamrab oluvchi yuksak ma’naviy tushunchalardir. Bularsiz xalqona tiynatni anglab ham, anglatib ham bo‘lmas. Chunki, ajdodlarimizdan avlodlarga uzatib kelingan bori qadriyatlar manbayi – aynan mana shu milliy ma’naviy merosimizdir.

Ma’lumki, ma’naviy meros — ma’naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, keljak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo‘lgan, kishilarining ongi va dunyoqarashining o‘sishi, olamni bilish va o‘zlashtirish borasidagi sa’y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuuni ifodalaydigan tushuncha. Ma’naviy meros ajdodlar tajribasi sifatida, avlodlarga qoldirilgan ma’naviy boyliklarining amaliy faoliyati, tafakkur tarzini belgilab beradi. Dastlab qadriyatlar asosida shakllangan ma’naviy meros bir vaqtning o‘zida millat, davlat, mintaqva va butun insoniyatga tegishli bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Imom Buxoriy va Imom Termiziyning diniy-ma’rifiy merosi, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid yoki Mirzo Ulug‘bekning astronomiyaga doir kashfiyotlari, nafaqat millatimiz va mintaqamizda istiqomat qilayotgan xalqlar, balki jahon sivilizasiyasi, madaniyatidan o‘rin olgan bebaho ma’naviy meros hisoblanadi. Shunday ekan, agar milliy qadriyatlar va ma’naviy meros tushunchalarini oydinlashtiradigan bo‘lsak, ma’naviy meros manbaviy mohiyat kasb etadi; uning amalga oshirilgan ko‘rinishi esa, qadriyatlar hisoblanadi. Millatning ma’naviy merosi (tarixiy, adabiy-ilmiy meroslar) manbaviy mohiyat kasb etsa, uning asosida amalga oshirilgan ko‘rinishi esa, qadriyatga aylanadi.

Ma’naviy meros moddiy merosdan farqli o‘laroq, olamda va insonning ichki dunyosida ro‘y bergen, berayotgan yoki berishi mumkin bo‘lgan intellektual va psixologik holatlar, xatti-harakatlar, amaliy faoliyat va uning natijalarini anglashga keng

imkoniyatlar yaratishi bilan qadrlidir. Shu bilan birgalikda, ma'naviy merosni moddiy merosga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Chunki bizgacha yetib kelgan moddiy meros insonning ongiga ta'siri nuqtayi nazaridan, ayni vaqtda, ma'naviy merosga aylanishi ham mumkin. Masalan, bizga qadar yetib kelgan uzoq o'tmishda yaratilgan tarixiy obidalar moddiy merosga mansub bo'lsa-da, ulardagi muhandislik, bezak ishlari, qurilish tarixi va unga oid ashyolarining tayyorlanishi, bunyodkorlari va boshqa jihatlariga ko'ra ma'naviy merosga aylanadi. Xuddi shuningdek, texnologiyalari va uskunalar ishlab chiqarish kabi moddiy ne'matlar moddiy merosga mansub bo'lsa-da, bu boradagi muayyan an'analarning ajdodlardan avlodlarga o'tishi ma'naviy meros tarzida amalga oshadi. Shu jihatdan olib qaralganda, insoniyatning yozma manbalarda aks etmagan ko'plab tabiiy ko'nikmalari ma'naviy meros tarzida ajdodlardan avlodlarga o'tib keladi.

Kishilar ongi, ichki dunyosi, tafakkur tarzi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularni boyitish, rivojlantirish, yangi g'oyaviy yo'nalishlarga boshqarish ma'naviy merosning asl mohiyatini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi kunda ma'naviy merosning odamlar hayot tarziga chuqur ta'sir etadigan qadriyat sifatida ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jamiyat tafakkuridagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qadriyatlar, dunyoqarash, e'tiqod, urf-odat, an'analar va munosabatlar kelajak avlodning ma'naviy merosini belgilaydi. Madaniy qadriyatlar va ma'naviy meros ming yillar mobaynida xalqimiz uchun qudratli ma'naviyat manbai sifatida xizmat qilib kelgan.

Uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi ajdoddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlari hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li ma'naviy meros nuqtai nazaridan to'rtta asosiy negizlar: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalq ma'naviy merosini qayta tiklash, mustahkamlash va rivojlantirish, shuningdek, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi bila bir qatorda, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga asoslanilgan holda, o'zligimiz qaytadan qad rostlay boshladi.

O'tgan o'ttiz yillik vaqt mobaynida, yangi avlod shakllandi: endilikda bu avlod o'z yurtining chinakam xo'jayini sifatida, uning tinchligi, ertangi kunida daxldorlik hissi, Vatan oldidagi mas'uliyatini his qiluvchi inson sifatida kamol topmoqda.

Ha, O'zbekiston deb ataluvchi bizning jannatmakon yurtimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini hozirda butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar, dono siyosatchilar, jasur sarkardalar yetishib chiqqani e'tirof etilmoqda. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ham mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi

toshbitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyat, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bu qadar katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kam topiladi. Xalqimizning haqiqiy ma’naviy merosi bo‘lmish iymon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo’slik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish, jamiyat kundalik hayotida doimo ustuvorlik kasb etishi to‘g‘risida so‘z borar ekan, avvalo, din peshvolari bilan hamkorlikda, ish olib borish maqsadga muvofiqdir, albatta. Chunki insonning ruhiy poklanishi, axloqiy tarbiyasi, el-yurti tinchligini o‘ylashi, osoyishta faoliyat yuritishi va millatlar totuvligini saqlashi bilan bog‘liq qadriyatlarni ifodalovchi ma’naviy merosni o‘zlashtirishda din bilimdonlarining o‘rni yaqqol ko‘rinib turadi. Qolaversa, asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma’naviyat,adolat, ma’rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib, bu falsafiy-axloqiy ta’limotlar donishmand xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi.

Xalqimiz minglab yillar davomida barpo etilgan ulkan ma’naviy meros bilan faxrlanadi. Buyuk Sharq mutafakkirlari al-Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuklarimiz asarlari hozirda butun bashariyatning bebaho mulki bo‘lib qoldi. Xalqning tarixiy ruhi uyg‘ondi, ma’naviyatimiz qayta ko‘z ochgan buloqlar singari, yurtdoshlarimiz qalbida milliy g‘urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg‘ulari kamol topmoqda. Buyuk qomusiy allomalarimiz ma’naviy durdonalaridan tortib, jadid bobolarimizning o‘lmas asarlari bo‘lgan buyuk ma’naviy meros – abadiyatining xalqqa qaytarilgani mustaqil yurtimizning eng yorqin yutuqlari qatoridan joy oldi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, biron-bir jamiyat ma’naviy imkoniyatlari, insonlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Demak, urf-odatlar, an'analar, xalq og‘zaki ijodi, fan, adabiyot, san’at va boshqa ham ma’naviy meros tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda unutmasligimiz kerakki, jamiyat ma’naviyati mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Bu inkor etib bo‘lmaydigan ijtimoiy gipotezadir. Unda biron-bir mamlakat o‘z ma’naviy imkoniyatlari tayanmay, jamiyat a’zolarining ongi, tafakkurida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ma’naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, uning ichki dunyosini boyituvchi, iymon-

irodasi, e'tiqodini mustahkamlovchi, vijdonini uyg'otuvchi qudratli kuch ekanini hamisha yodda saqlamog'imiz darkor.

Xalqimiz o'tmishi — bizning buyuk ustozimiz. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz deyarli, muttasil tarzda, u yoki bu chet mamlakatlar bosqinchilari hujumiga duchor bo'lgan, ijtimoiy va siyosiy qaramlik, zulm ostida qolgan. (Buyuk Sohibqiron Amir Temur davri bundan mustasno, albatta.) Bu qaramliklar oqibatida, xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari ma'lum davrlar mobaynida, qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sho'ro tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf- odatlарimiz, oyoqosti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzilib, qarovsiz qolgani ayni haqiqatdir.

Dunyoda o'ziga xos qadriyatlar, muayyan ma'naviy merosga mansub bo'limgan xalq bo'lmas. Milliy qadriyatlar esa, muayyan xalqning tarixi, yashash tarzi, tili, urf-odatlari, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi tabiiydir . Bizning milliy o'zligimiz milliy an'ana va qadriyatlarimizni o'zida aks ettiradi, ularni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuning sababli, millat- o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi – yangi qirralarini sayqallashtirib, boradi.

Yuqorida biz ko'plab o'rinnarda, ma'naviy meros tushunchasini yoritar ekanmiz, "o'zlik", "milliy tiynat", "bizning milliy fe'limiz" degan jumlalarni qo'llash barobarida, ularni bir butunlikda, qadriyat deb ataluvchi buyuk mezon atrofida birlashtirib izohlashga urindik. Zotan, o'zbek milliy qadriyatları mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotishi, bu insoniylik zaminida yuqoridagi ma'naviy tarkibiyatning mushtarakligi inkor etib bo'lmaydigan ijtimoiy haqiqatdir. Uzoq tarixiy davrlar davomida o'zbek xalqimizning kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr-oqibat hamda sadoqat kabi oliyjanob insoniy fazilatlar har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Demakki, milliy qadriyatlar muayyan millatga mansub xalq tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkich ekani oydinlashdi. Zero, o'zbek xalqimiz tomonidan milliy urf- odatlарimiz, ota- bobolarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni qadrlanadi. Buning mohiyati, o'ziga xos jihat shundaki, ularda qadim zamonalardan boshlab umuminsoniy g'oyalari teran aks etadi, asrlar mobaynida, sayqallashtib, o'zligimizning tub negizi, asosiy mezoni sifatida insoniylikni tarannum etib turaveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma’naviy merosimiz bizning o‘zligimiz, boy qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalq ekanimiz, hatto buyuk davlatchilik tariximizni ham ko‘rsatib beradigan ma’naviy mezon sifatida qimmatlidir. Ajdodlarimizdan qolgan bu ma’naviy merosni asrab-avaylash, uni kelajak avlodlarga-da yetkazib berish biz, yoshlarning asosiy vazifamizdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bo‘ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEXANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.
2. Nazim, B. R. (2022). O ‘zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba’zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o ‘rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov “Nido” dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.
3. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.
4. Bo‘ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).
5. Egamberdiyeva, D., & Kuchkorova, K. (2023). Development of methodological programs in a foreign language. Interpretation and researches, 1(9).
6. Egamberdiyeva, D., & Uzokboyeva, D. (2023). METHODS OF TEACHING SPEECH ETIQUETTE IN ENGLISH LESSONS. Interpretation and researches, 1(9).
7. Frunzevna, M. Z., & Odilbekovna, R. N. (2024). TIL O’RGANISHDA O’YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11-13.
8. Матниязова, Ф. Ф., & Мадрахимова, З. Ф. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116-118.
9. Мадрахимова, З. Ф., Баркулиева, Л. Р., & Юсупова, М. К. (2024). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ КРИТИЧЕСКОГО

МЫШЛЕНИЯ: ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 165-169.

10. Мадрахимова, З. Ф. (2024). Литературные Загадки В Детской Поэзии: Описание, История Создания. Journal of Innovation in Education and Social Research, 2(1), 166-171.

11. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142-145.

12. Мадрахимова, З. Ф. (2023). ЕСЛИ НЕ ЖИТЬ СОВРЕМЕННОСТЬЮ-НЕЛЬЗЯ ПИСАТЬ. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 570-572.

13. Suyarov, A. (2023). INNOVATION USULLAR-TALABALARING TA'LIM VA KOGNITİV FAOLIYATINI TASHKIL ETTIRISHNING YANGI TARZI. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1).

14. Suyarov, A., & Axmadov, H. TOG JINSLARI VA ULARNING FIZIKAVIY-MEXANIKA VYOSSALARI. ТОШКЕНТ-2021, 28.

15. Samiyeva, G. (2024). Ijtimoiy sohada maqsadli jamg 'armalar va ijtimoiy fondlar faoliyatini takomillashtirishning xorij tajribasi. THE INNOVATION ECONOMY, 2(02).

16. Самиева, Г. Т. (2024). Анализ Бытового Обслуживания В Республике Узбекистан. Miasto Przyszłości, 51, 167-171.

17. Самиева, Г. Т. (2024). РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ СЛУЖИТ ПОВЫШЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. Экономика и социум, (5-1 (120)), 1597-1600.

18. Fayziyeva, S., Samiyeva, G., & Yuldasheva, S. (2024). Possibilities of using economic mechanisms when organizing fruit and vegetable cooperatives. In E3S Web of Conferences (Vol. 539, p. 02024). EDP Sciences.

19. Samiyeva, G. (2023). AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH ISLOHOTLARINI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI. THE INNOVATION ECONOMY, 1(03).

20. Samiyeva, G. T. (2023). IJTIMOIY FONDALAR VA MAQSADLI JAMG 'ARMALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.